



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



## TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023 - yil 1 - aprel holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 126,4 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 114,1 mingta).

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1 - aprel holatiga ko‘ra, birlikda.*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda



Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023 - yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022 - yilning mos davri bilan solishtirilganda 459 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

## Hududlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	575	5,2 %	Yakkasaroy tumani	359	4,4 %
Yunusobod tumani	500	4,4 %	Shayxontohur tumani	358	4,0 %
Chilonzor tumani	490	4,3 %	Uchtepa tumani	269	3,5 %
Yashnobod tumani	419	5,2 %	Sirg'ali tumani	247	4,9 %
Olmazor tumani	411	4,5 %	Yangihayot tumani	172	7,4 %
Mirobod tumani	371	4,7 %	Bektemir tumani	105	4,2 %

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Faoliyat ko'rsatayotganlarning ro'yxatdan o'tganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023 - yil 1 - aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 94 406 tani tashkil etib bunda yuqori ko'rsatkichlarni savdo – 29 405 tani, sanoat – 12 091 tani, qurilish – 7 017 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	11 361	Yakkasaroy tumani	8 142
Yunusobod tumani	11 330	Yashnobod tumani	7 985
Yunusobod tumani	11 330	Uchtepa tumani	7 792
Mirzo Ulug'bek tumani	11 020	Sirg'ali tumani	5 071
Olmazor tumani	9 064	Bektemir tumani	2 513
Shayxontohur tumani	8 923	Yangiyahoyot tumani	2 334

2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023 - yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 156 tani tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	556	5,7 %	Shayxontohur tumani	348	4,5 %
Yunusobod tumani	488	4,9 %	Yakkasaroy tumani	345	4,6 %
Chilonzor tumani	478	4,7 %	Uchtepa tumani	261	3,6 %
Yashnobod tumani	413	5,7 %	Sirg'ali tumani	243	5,2 %
Olmazor tumani	399	4,8 %	Yangihayot tumani	163	7,7 %
Mirobod tumani	358	5,2 %	Bektemir tumani	105	4,5 %

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Faoliyat ko'rsatayotganlarning  
Ro'yxatdan o'tganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023 - yil 1- aprel holatiga 83,7 tani tashkil etmoqda. Faoliyat ko'rsatayotga tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi: savdo – 35,1 foiz, sanoat – 14,4 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,2 foizni tshlik qilmoqda.


## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	10 111	Yashnobod tumani	7 186
Yunusobod tumani	10 035	Uchtepa tumani	7 160
Mirzo Ulug'bek tumani	9 727	Mirobod tumani	6 906
Olmazor tumani	8 247	Sirg'ali tumani	4 705
Shayxontohur tumani	7 805	Bektemir tumani	2 347
Yakkasaroy tumani	7 425	Yangihayot tumani	2 113




2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022 - yilning mos davriga nisbatan 483 taga ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	553	5,8 %	Shayxontohur tumani	344	4,5 %
Yunusobod tumani	485	4,9 %	Yakkasaroy tumani	343	4,7 %
Chilonzor tumani	477	4,8 %	Uchtepa tumani	257	3,6 %
Yashnobod tumani	411	5,8 %	Sirg'ali tumani	242	5,2 %
Olmazor tumani	396	4,9 %	Yangihayot tumani	162	7,8 %
Mirobod tumani	352	5,2 %	Bektemir tumani	104	4,9 %

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Faoliyat ko'rsatayotganlarning ro'yxatdan o'tganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Chilonzor tumani (12,1 foiz), Yunusobod tumani (12,0 foiz), Mirzo Ulug'bek tumani (11,6 foiz), Olmazor

tumani (9,9 foiz) va Mirobod tumani (8,2 foiz) da faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	9 949	Uchtepa tumani	7 103
Yunusobod tumani	9 846	Yashnobod tumani	7 040
Mirzo Ulug'bek tumani	9 539	Mirobod tumani	6 712
Olmazor tumani	8 140	Sirg'ali tumani	4 622
Shayxontohur tumani	7 634	Bektemir tumani	2 302
Yakkasaroy tumani	7 274	Yangihayot tumani	2 076




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko‘ra, birlikda

### Tumanlar kesimida

Uchtepa tumani	40
Bektemir tumani	36
Yunusobod tumani	76
Mirzo Ulug‘bek tumani	101
Mirobod tumani	45
Shayxontohur tumani	95
Olmazor tumani	58
Sirg‘ali tumani	41
Yakkasaroy tumani	56
Yashnobod tumani	64
Yangiayot tumani	28
Chilonzor tumani	45




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda


**Tumanlar kesimida**

Olmazor tumani	1 465
Chilonzor tumani	1 412
Uchtepa tumani	1 295
Yunusobod tumani	1 188
Yshnobod tumani	1 097
Mirzo Ulug'bek r tumani	1 081
Shayxontoxur tumani	1 002
Yakkasaroy tumani	939
Sirg'ali tumani	851
Mirobod tumani	710
Yangihayot tumani	539
Bektemir tumani	512



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan o'sish 74,2 foiz), 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 85,9 foiz), 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 106,1 foiz) va 1,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 69,0 foiz) tashki etgan.



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	902
Ynusobod tumani	852
Chilonzor tumani	847
Yashnobod tumani	744
Yakkasaroy tumani	710
Mirobod tumani	610
Shayxontoxur	552
Olmazor tumani	528
Uchtepa tumani	444
Sirg'ali tumani	420
Yangihayot tumani	229
Bektemir tumani	179



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 42,7 foiz ulushni va 76,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

640


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

3 002

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

3 375


Bino va  
inshootlar qurish



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Chilonzor tumani	3 681
Olmazor tumani	3 361
Uchtepa tumani	3 207
Yunusobod tumani	3 108
Mirzo-Ulug'bek tumani	2 951
Shayxontohur tumani	2 735
Yashnobod tumani	2 598
Yakkasaroy tumani	2 235
Mirobod tumani	1 995
Sirg'ali tumani	1 833
Bektemir tumani	993
Yangiheyot tumani	708



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,7 foizi yoki 29,0 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 44,3 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 90,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 48,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 99,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 95,6 foizni tashkil etdi.

2 106

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

14 264

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


13 035

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Yunusobod tumani	714
Chilonzor tumani	624
Yakkasaroy tumani	579
Mirzo Ulug'bek tumani	570
Mirobod tumani	506
Olmazor tumani	489
Shayxontohur	457
Yashnobod tumani	454
Uchtepa tumani	391
Sirg'ali tumani	244
Bektemir tumani	116
Yangiheyot tumani	79



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 75,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 13,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,4 foiz ulushini tashkil etdi.

709

Yashash bo'yicha xizmatlar



4 514

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	748
Yunusobod tumani	639
Chilonzor tumani	529
Mirobod tumani	527
Yakkasaroy tumani	458
Shayxontohur tumani	446
Yashnobod tumani	327
Omazor tumani	311
Uchtepa tumani	188
Sirg'ali tumani	123
Yangihayot tumani	62
Bektemir tumani	44



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 25,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022 – yilning mos davriga nisbatan 87,6 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 11,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022 – yilning mos davriga nisbatan 79,8 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 62,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil etdi.






2023 - yil 1 - aprel holatiga koʻra, birlikda

**Tumanlar kesimida**

Yunusobod tumani	321
Mirzo Ulugʻbek tumani	280
Chilonzor tumani	246
Olmazor tumani	231
Shayxontohur tumani	193
Uchtepa tumani	166
Yashnobod tumani	162
Mirobod tumani	125
Yakkasaroy tumani	119
Sirgʻali tumani	86
Yangihayot tumani	56
Bektemir	28



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 773 ta yoki 88,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

96,2 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,1 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

42



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

34




Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

1937

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Chilonzor tumani	445
Mirobod tumani	428
Yunusobod tumani	419
Yakkasaroy tumani	403
Mirzo Ulug'bek tumani	395
Yashnobod tumani	344
Olmazor tumani	327
Shayxontohur tumani	300
Uchtepa tumani	244
Sirg'ali tumani	234
Bektemir tumani	118
Yangihayot tumani	78



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 4,0 foiz ulushini tashkil etdi.

2022 - yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 86,5 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 95,2 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 74,1 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5 taga ko'paygan;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni o'zgarishsiz qolgan.




### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	<b>536</b>	6,3 %	Yakkasaroy tumani	<b>329</b>	4,9 %
Yunusobod tumani	<b>463</b>	5,3 %	Shayxontohur tumani	<b>322</b>	5,0 %
Chilonzor tumani	<b>437</b>	5,1 %	Uchtepa tumani	<b>238</b>	4,3 %
Yashnobod tumani	<b>393</b>	6,3 %	Sirg'ali tumani	<b>219</b>	5,4 %
Olmazor tumani	<b>373</b>	5,5 %	Yangihayot tumani	<b>145</b>	8,2 %
Mirobod tumani	<b>340</b>	5,5 %	Bektemir tumani	<b>99</b>	5,2 %





2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 83,7 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 71,4 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


## Hududlar kesimida

Yunusobod tumani	8 701	Yashnobod tumani	6 231
Chilonzor tumani	8 588	Mirobod tumani	6 128
Mirzo Ulug'bek tumani	8 566	Uchtepa tumani	5 597
Olmazor tumani	6 722	Sirg'ali tumani	4 040
Yakkasaroy tumani	6 691	Bektemir tumani	1 911
Shayxontohur tumani	6 492	Yangihayot tumani	1 772




2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	34	2,9 %	Yunusobod tumani	10	1,1 %
Uchtepa tumani	16	1,4 %	Yakkasaroy tumani	9	1,7 %
Shayxontohur tumani	15	1,7 %	Yashnobod tumani	9	1,4 %
Mirzo Ulug'bek tumani	14	1,7 %	Mirobod tumani	8	1,6 %
Sirg'ali tumani	13	2,7 %	Yangihayot tumani	5	2,6 %
Olmazor tumani	12	1,1 %	Bektemir tumani	3	1,0 %




2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 8,6 mingtani tashkil qiladi.


## Hududlar kesimida

Uchtepa tumani	1 163	Yashnobod tumani	627
Chilonzor tumani	1 161	Yakkasaroy tumani	517
Olmazor tumani	1 085	Mirobod tumani	512
Yunusobod tumani	878	Sirg'ali tumani	473
Sgayxontohur tumani	869	Bektemir tumani	315
Mirzo Ulug'bek tumani	813	Yangihayot tumani	194


2023 - yil yanvar-mart oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar



Qurilish



Yashash va ovqatlanish

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Yunusobod tumani	14	4,1 %	Sirg'ali tumani	9	5,4 %
Olmazor tumani	13	3,5 %	Uchtepa tumani	7	1,9 %
Yangihayot tumani	13	9,3 %	Chilonzor tumani	7	2,8 %
Yashnobod tumani	11	4,2 %	Yakkasaroy tumani	6	3,8 %
Shayxontohur tumani	10	2,9 %	Mirzo Ulug'bek tumani	5	2,3 %
Mirobod tumani	9	6,3 %	Bektemir tumani	3	3,0 %


2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra 2022 - yilning mos davriga nisbatan 691 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida


Olmazor tumani	375	Mirzo Ulug'bek tumani	216
Uchtepa tumani	370	Sirg'ali tumani	168
Shayxontohur tumani	341	Yakkasaroy tumani	157
Yunusobod tumani	338	Mirobod tumani	144
Yashnobod tumani	263	Yangihayot tumani	140
Chilonzor tumani	249	Bektemir tumani	100

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida

Mirobod tumani	107	7,7 %	Shayxontohur tumani	35	6,1 %
Mirzo Ulug‘bek tumani	92	8,1 %	Olmazor tumani	29	7,2 %
Yakkasaroy tumani	65	5,4 %	Sirg‘ali tumani	18	5,8 %
Yashnobod tumani	62	8,4 %	Yangihayot tumani	15	10,8 %
Yunusobod tumani	60	6,2 %	Bektemir tumani	13	7,2 %
Chilonzor tumani	51	6,8 %	Uchtepa tumani	5	2,1 %


2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,0 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 1 954 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 13,4 foiz), Xitoy (ulushi 10,5 foiz), Qozog'iston (ulushi 9,2 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

Mirobod tumani	1 396	Shayxontohur tumani	570
Yakkasaroy tumani	1 205	Olmazor tumani	404
Mirzo Ulug'bek tumani	1 136	Sirg'ali tumani	313
Yunusobod tumani	962	Uchtepa tumani	236
Chilonzor tumani	749	Bektemir tumani	181
Yashnobod tumani	735	Yangihayot tumani	139


2023 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda



Toshkent shahrining o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2 657 tasi qo'shma korxonalar, 5 369 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

154	Uchtepa	82
94	Bektemir	87
655	Yunusobod	307
765	Mirzo Ulug'bek	371
1 008	Mirobod	388
358	Shayxontohur	212
221	Olmazor	183
202	Sirg'ali	111
865	Yakkasaroy	340
467	Yashnobod	268
80	Yangihayot	59
500	Chilonzor	249

2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Toshkent shahar statistika boshqarmasining [www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz) rasmiy saytidan (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkin.



Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71 203 88 31